



ZAMONAVIY ROJER ESHITISH MOSLAMALARINING AHAMIYATI

*TDTU OF "Ijtimoiy gumanitar va tillar kafedrası"
assistenti Mirzaxmatova Sayyora Saydaxmatovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kar bolalarni o'qitishda zamonaviy eshitish apparatlaridan foydalanish, kar o'quvchilarning eshituv idrokini rivojlantirish vazifalari va nutqning kuchlanish rejimini to'g'ri yo'lga qo'yishda Roger eshitish moslamalarining ahamiyati borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: karlik, nuqson, genetika, nutq, eshituv apparati, Roger to'plami.

Аннотация: В статье рассматриваются причины глухоты, задачи развития слухового восприятия глухих учащихся, а также значение слуховых аппаратов Roger в коррекции стрессового режима речи.

Ключевые слова: глухота, дефект, генетика, речь, слуховой аппарат, коллекция Роджера.

Abstract: This article discusses the causes of deafness, the tasks of developing the auditory perception of deaf students, and the importance of Roger hearing aids in correcting the stress mode of speech.

Key words: deafness, defect, genetics, speech, hearing aid, Roger collection.

Karlik - bu tovushni to'liq eshitmaslik. Ushbu holatning sabablari ko'p bo'lishi mumkin va u har qanday yoshda paydo bo'lishi mumkin. Odamlar virusning asorati sifatida to'satdan kar bo'lib qolishi yoki vaqt o'tishi bilan kasallik, asab shikastlanishi yoki shovqin tufayli eshitish qobiliyatini yo'qotishi mumkin.

Insonga biologik omillar nasliy ta'sir etadi. Bolaga ota-onasidan terisining rangi, sochi, ko'zi va boshqa tana qismlari bilan birga moddalar almashinuvi, nerv sistemasi ham o'tadi. Xatto nasliy kasalliklardan gemofiliya, shizofreniya, ba'zi endokron sistemasining buzilishi va nuqsonlar(eshitish yo'lining tug'ma bekikligi-atreziya) ham o'tishi mumkin. Meditsina genetikasi shu narsani aniqladiki, karlik va zaif eshituvchanlikning nasliy shakli 30%-50% ni tashkil etarkan. Ma'lum bo'lishicha, nasliy karlik va zaif eshituvchilik 80% oilalarda retsessiv tipda ketadi, 19% dominant tipda ajdodlardan yosh avlodlarga, birgina ota-onadan bolalariga o'tadi, 1% aralash tipda bo'ladi. Genetik neyrosensor karlik va zaif eshituvchilik quyidagi genetik nuqsonlardan paydo bo'ladi: ichki quloqning (asosan spiral organda) tuzilishini normada shakllanishga bog'liq.

Ichki quloqning gidrodinamik buzilishi juda katta ro'l o'ynaydi. Lekin tabiiy odatlar miya tuzilishi, nutq harakat organlari, sezgi organlarini boshqarishda bog'liq bo'ladi. Bu faoliyatlarni rivojlanishi insonning ta'lim va tarbiyasiga bog'liq bo'ladi.

Inson rivojlanishida biologik omillar turlicha ta'sir etadi: embrionlik davrda, xomilaning rivojlanishida va tug'ilgandan keyin. Fiziologlarning aytishicha, eshitishning buzilishiga ichki rivojlanishning bir qancha sabablari ta'sir etadi. Onaning yuqumli kasalliklar bilan chalinishi (qizilcha, gripp, skarlatina, qizamiq), antibiotiklar ta'sirida va alkagol ta'sirida zaxarlanishi, ona va xomilani qon rezus faktori to'g'ri kelmasligi, tug'ilish jarayonida gemolitik kasallik bilan tug'ilishi sabab bo'ladi. Tug'ilish jarayonidagi travmalar eshitishga ta'sir etishi mumkin. Tug'ilgandan keyin bola rivojlanishida yuqumli kasalliklar bilan kasallanishi ham eshitishning buzilishiga olib keladi. Eng katta xavf tug'diradigan kasalliklar: entsefolit, meningit, qizamiq, skarlatina, gripp, burun va burun-quloq yo'llari kasalligi, quloqning o'tkir otiti va boshqalardir. D.I.Tarasov ma'lumotiga ko'ra, eshitishning pasayishiga yana bir sabab, ya'ni e'tiborsizlik natijasida quloq yo'lga yot jismlarning tushib qolishi yallig'lanishiga olib keladi.

Biologik nuqsonning asosida eshitish analizatorining hayot faoliyati buziladi. Tovushni qabul qilmaslik, miya po'stlog'iga axborotni o'tkazmaydi va atrof-olamdagi voqea-hodisalarni salbiy fikrda qabul qiladi. Soqovlik-ikkinchi biologik nuqson bo'lib, birinchi nuqsondan kelib chiqadi va bola ijtimoiy muhit bilan normadagi muloqot tizimini o'rnatmaydi.



Kar o'quvchilarning eshituv idrokini rivojlantirishda asosiy vazifalar quyidagilardan iboratdir:

- ularning eshitish qoldiqini rivojlantirish;
- shu asosda yangi eshituv-ko'ruv negizini og'zaki nutqida sifatli idrok etish;
- karlarning eshituv idrokini ifodali nutqini qabul qilishda ishlata olish;
- karlarda tovushlar haqidagi tushunchalarni boyitish, tashqi sharoitdagi tovushlarni anglashni o'rgatish.

Bu vazifalar eshitish qobiliyatini rivojlantirish ishini tizimli ravishda olib borishda asosiy omil sanaladi. Karlarda eshituv idrokini rivojlantirish ovoz kuchaytirgich apparatlarning frontal yoki individual tipida keng qo'llashda amalga oshiriladi.

O'qitish mobaynida frontal mashg'ulotlarda frontal eshitish apparatlari, yakka mashg'ulotlarda esa individual eshitish apparatlari qo'llaniladi.

Kar bolalarda eshituv idrokini rivojlantirishda nutqining kuchlanish rejimini to'g'ri yo'lga qo'yish asosiy omil deb hisoblanadi. Bu borada bugungi kunda mamlakatimizda mavjud barcha kar bolalarni o'qitish muassasalari zamonaviy Roger eshitish moslamalari to'plamlari bilan ta'minlangan. Yangicha va keng imkoniyatga ega bu eshitish moslamasi kar bola qulog'idagi eshitish apparatiga ulanib, atrof-muhitdagi tovushni shovqinlarsiz kuchli to'lqin bilan yetkazib beradi. Roger chaqaloqlar, maktabgacha, maktab yoshidagi bolalar va kata yoshdagi insonlar foydalanishi uchun mo'ljallangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola maktabga tayyor bo'lishi uchun 45 million so'z eshitishi kerak. Roger eshitish moslamasidan foydalanish bola bilan ota-ona o'rtasidagi muloqot chastotasi va uning davomiyligini oshishiga, miyaning rivojlanishiga yordam beradi.

To'plam quyidagi qurilmalardan iborat :

1. Touchscreen Mic (mikrofon) – turli xil diapazondagi chastotalarni avtomatik tarzda tanlash va o'rnatilgan mikrofon bilan o'tkazish vazifasini bajaradi. Bu qurilma to'plamning asosi bo'lib, undan pedagog foydalanadi, boshqa barcha qurilmalar unga ulanadi va ularni boshqaradi.

2. NeckLoop (SubNet) – Roger NeckLoop universal qabul qilgich bo'lib, har qanday eshitish apparati yoki koxlear implant bilan mos keladi. U kattalar, talabalar va 8 yoshdan oshgan bolalar tomonidan to'liq Roger mikrofon portfeliga kirish va shovqinli vaziyatlarda masofadan turib, Roger texnologiyasidan foydalanish imkoniyatini berish uchun bo'yniga taqiladi.

3. Pass-around (mikrofon) – mikrofondagi to'rtta tugma mavjud, bular uni boshqaradi: yoqish-o'chirish, ovozni boshqarish (ko'tarish va pasaytirish) ovozli va ovozsiz rejimga solish. Mikrofon pedagog ovozini guruhdagi bolalarga yanada aniqroq yetkazib berishga xizmat qiladi.

4. Multimedia hub – kompyuter yoki boshqa zamonaviy qurilmaga ulanib, bolaga uzatilgan video yoki ma'lumot shaklidagi axborotni ovozli tarzda yetkazilishini ta'minlaydi.

Roger eshitish moslamalari to'plamidan kar bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida foydalanish, avvalo kar bolaga qulay muloqot muhitini yaratib beradi. Uning lug'at boyligi va nutqini rivojlanishini ta'minlaydi, o'qitishda ta'lim sifatini oshirish, hamda ularni ijtimoiy hayotga moslashib o'z o'rniga ega bo'lishlarida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karpova G.A. "Surdopedagogika asoslari" O'quv qo'llanma, Moskva - 2008
2. Xamidova M.U. "Maxsus pedagogika" – T. Fan va texnologiya, 2018
3. Fayziyeva U. Nazarova D. Qodirova F. "Surdopedagogika" Malaka oshirish institutlari va pedagogika institutlari – T. Sano-standart, 2012
4. Mirzaxmatova, S. S. (2025). O'QUVCHILAR KAYFIYATINI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOSLIGI. Fan, Jamiyat va Innovatsiyalar, 3(21), 37-39.URL: <http://uzresearch1.uz/index.php/FJI/article/view/481>
5. Mirzaxmatova, S. S. (2025). TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Fan, Jamiyat va Innovatsiyalar, 3(21), 75-



76. URL: <http://uzresearch1.uz/index.php/FJI/article/download/482/521>

6. TEACHING, U. M. H. D. I. DEAF CHILDREN (Mirzakhmatova Sayyora Saydakhmatovna, Trans.).(2025). Fan, Jamiyat Va Innovatsiyalar, 3 (21), 4-5.

7. Saydakhmatovna, M. S. (2025). USING MODERN HEARING DEVICES IN TEACHING DEAF CHILDREN. Fan, Jamiyat va Innovatsiyalar, 3(21), 4-5. URL:

<http://uzresearch1.uz/index.php/FJI/article/view/464>